

ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOTDAGI O'RNI

Teshabayeva Marhabo Muradovna.

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali. Davolash ishi yo'nalishi I bosqich talabasi.
marhaboteshaboyeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sinoning taraqqiyot yo'li, tibbiyotga qo'shgan hissasi, uning tibbiyot yo'lida qilgan ishlari haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek uning tibbiyotga oid asarlari va bu asarlarining hozirgi zamonaviy tibbiyotdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, tibbiyot, davolash, meditsina, asarlari, kasalliklar, inson salomatligi, imunitet, virus, bakteriya.

Abstract

This article provides information about the development path of Abu Ali Ibn Sina, his contribution to medicine, and his work in the field of medicine. It also covers his medical works and the role of these works in modern medicine.

Keywords: Ibn Sina, medicine, treatment, medicine, works, diseases, human health, immunity, virus, bacteria.

Аннотация

В данной статье представлена информация о пути развития Абу Али ибн Сины, его вкладе в медицину и его работах в области медицины. Также рассматриваются его медицинские труды и роль этих работ в современной медицине.

Ключевые слова: Ибн Сина, медицина, лечение, медицина, труды, болезни, здоровье человека, иммунитет, вирус, бактерии.

Abu Ali ibn Sino (to'liq ismi: *Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino al-Balxiy* taxminan 980-yil, [Afshona Movarounnahr](#), [Somoniylar davlati](#) – 1037-yil 18-iyun, [Hamadon](#)) — qomusiy olim, tabib va [faylasuf](#). G'arbda Avitsenna (*ingl.* Avicenna) nomi bilan mashhur. Abu Ali Sino Movarounnahrlik polimat, [shifokor](#), [matematik](#), [astronom](#), [fizik](#), [kimyogar](#), geograf, [geolog](#), shoir, mantiqchi, [faylasuf](#), musiqachi va davlat arbobi edi. U [Eron](#) va dunyodagi eng mashhur va nufuzli faylasuf va olimlardan biri bo'lib, ayniqsa falsafa va tibbiyot sohalaridagi asarlari bilan ahamiyatlidir. Uning asosiy asarlari ikkita keng qamrovli ilmiy va falsafiy ensiklopediyalar, "[Kitob ash-Shifo](#)" va "Al-Alay ensiklopediyasi", shuningdek, tibbiyot tarixidagi eng mashhur asarlardan biri bo'lgan "Al-Qonun fi at-Tibb"dir. Ibn Sinoning otasi Abdulloh [Balx](#) shahridan bo'lib, [Somoniylar](#) amiri [Nuh ibn](#)

Mansur (967–997) davrida Buxoro tomoniga ko‘chib, Hurmaysan qishlog‘iga moliya amaldori etib tayinlanadi. U Afshona qishlog‘ida Sitara ismli qizga uylanib ikki o‘g‘il farzand ko‘radi. O‘g‘illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt – Buxoroga ko‘chib keladi va uni o‘qishga beradilar. 10 yoshga yetmasdan Ibn Sino Qur‘on va adab darslarini to‘la o‘zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr (algebra) bilan ham shug‘ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. U el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo‘lgani uchun otasi Ibn Sinoni unga shogirdlikka berdi. Notiliyning qo‘lida olim mantiq, handasa va falakiyot (astronomiya)ni o‘rgandi va ba’zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o‘zib ketdi. Ibn Sinoning aql-zakovatini ko‘rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullantirmaslikni tayinlaydi. Shundan so‘ng ota o‘g‘liga ilm o‘rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Abu Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini o‘zlashtirishga kirishdi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o‘qidi, xususan, tabobatni sevib o‘rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi.[1. Internet sayti.]

Ibn Sino (980-1037)-buyuk alloma,tabib,faylasuf va ensiklopedist olim bo‘lib,Sharq va jahon ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan.Uning eng mashhur asari “Tib qonunlari”asrlar davomida tibbiyotning asosiy qo‘llanilgan. Ibn Sino nafaqat tibbiyotda,balki falsafa,mantiq,matematika,astronomiya va kimyo kabi ko‘plab sohalarda ham yuksak ilmiy natijalarga erishgan.U inson salomatligi,kasalliklarning kelib chiqish sabablari,davolash usullari va sog‘lom turmush tamoyillarini ilmiy asosda bayon qilgan matafakkir sifatida tanilgan.

Qoraxoniylar 999-yil Buxoroni zabt etib, Somoniylar davlatini ag‘darganidan keyin Ibn Sino hayotida tashvishli, notinch va og‘ir damlar boshlandi. 1002-yil uning otasi vafot etdi. Ikki sulola vakillarining taxt uchun kurashi 1005-yilgacha davom etib, oxiri Qoraxoniylarning butkul g‘alabasi bilan tugadi. Bunday vaziyatda Buxoroda ortiq qolib bo‘lmas edi. Shu bois Ibn Sino o‘z yurtini tark etib Xorazmga bosh olib ketdi. XI-asr boshlarida Xorazm qoraxoniylar hujumidan birmuncha tinch bo‘lib, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan o‘lka edi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma‘mun (997–1009) va Ma‘mun ibn Ma‘mun (1009–1017) ilm fanga e‘tiborli hukmdorlar bo‘lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergan edilar. Shu bois bu davrda Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch)da zamonasining ko‘pgina taniqli olimlari to‘plandi. Yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq, (1034-yilda vafot etgan), mashhur tabib va faylasuflar Abu Saql Masihiy (1010-yilda vafot etgan), Abu al-Xayr Hammor (942–1030) va buyuk olim Abu Rayhon Beruniy shular jumlasidan. Ana shu ilmiy davraga 1005-yil Ibn Sino ham kelib qo‘shildi. Xorazmda Ibn Sino, asosan, matematika va astronomiya bilan shug‘ullandi. Bu sohalardagi bilimlarining chuqurlashib, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida Ibn Iroq va Beruniy

bilan bo'lgan ilmiy muloqotlar katta ahamiyat kasb etdi. Ibn Sinoning Aristotel ta'limoti xususida Beruniy bilan va o'zining shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Ibn Sino Abu Saxl Masihiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan ham katta saboq oldi. Xorazmshoh vaziri Abulhusayn as-Sahliy ilmlarni sevuvchi kishi bo'lganidan, Ibn Sino u bilan do'stlashadi va unga atab alkimyoga oid „Risola aliksir“ („Eliksir haqida risola“) nomli asar yozdi. Biroq Xorazmdagi osoyishta hayot uzoqqa cho'zilmaydi. Sharqda qudrati ortib borayotgan G'azna hukmdori sulton Mahmud G'aznaviy bu o'lkaga ko'z tikadi. U, avval, Ma'munga saroydagi bir guruh olimlarini G'aznaga jo'natib yuborishni so'rab xat yozadi. Bu xatga javoban Beruniy va Abu al-Xayr Hammor G'aznaga ketadilar. Ibn Sino esa bu taklifni rad etib, Masihiy bilan birgalikda 1010–1011-yillarda yashirinchalik Xorazmni tark etadi. Shu vaqtdan olimning sargardonlik yillari boshlanib, umrining oxirigacha vatandan uzoqda hayot kechirishga majbur bo'ladi. Masihiy bilan Ibn Sino Jurjonga – Masihiyning vataniga yo'l oldilar. Lekin yo'ldagi qiyinchiliklar va suvsizlik tufayli Masihiy betob bo'lib, vafot etadi. Natijada, Ibn Sino azob-uqubatlar chekib, avval, Niso, so'ng Obivard, Tus, Shiqqon va Xurosonning boshqa shaharlarida qisqa muddat turganidan keyin, nihoyat, Kaspiy dengizining janubi sharqida joylashgan Jurjon amirligiga yetib keladi. Ibn Sino Jurjonda 1012–1014-yillarda yashaydi, lekin shu qisqa vaqt ichida uning hayotidagi muhim voqealardan biri – Abu Ubayd Jurjoniylar bilan uchrashuv va bir umrga do'stlashuv sodir bo'ladi. U Ibn Sinoga nafaqat shogird, balki sodiq do'st ham edi. U Ibn Sino bilan olimning so'nggi damigacha, 25 yil davomida birga bo'ladi. Ibn Sino tarjimai holining yozilib qolishi, ko'pgina asarlarining ta'lifi va tartibga tushishi hamda ularning keyingi avlodlarga kelishida Jurjoniylarning xizmati katta. Jurjondalik vaqtida Ibn Sino ham ilmiy ijod bilan shug'ullandi, ham tabib sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda u shogirdining iltimosiga ko'ra, mantiq, falsafa va boshqa fanlarga oid bir nechta risola yozdi va eng muhimi „Tib qonunlari“ning dastlabki qismlarini yaratdi. 1014-yil olim Jurjonni tark etib, Rayga ko'chdi. Ibn Sino Rayga kelgan vaqtida bu yerda buvayhiylardan bo'lmish Majduddavla Abu Tolib Rustam (997–1029) va uning onasi Sayyida Xotun hukmronlik qilar edilar. Bu yerda Ibn Sino savdoyi dardiga chalinib qolgan Majduddavlani davoladi va shu sababli saltanat tepasida turgan Sayyidaning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'ldi. Lekin olim Rayda ham uzoq turolmadi, chunki Sulton Mahmud G'aznaviyning Rayga ham hujum qilish xavfi bor edi. Shu bois Ibn Sino Rayni tark etib, nisbatan kuchliroq, bo'lgan Hamadonga, Majduddavlaning akasi Shamsuddavla (997–1021) huzuriga ketadi. Hukmdorni sanchiq kasalidan davolaganidan keyin olimni saroyga taklif qiladilar. U avval saroy tabibi bo'lib ishlaydi, so'ng vazirlik mansabiga ko'tariladi. Davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay ilmiy ishlarini ham davom ettiradi va qator asarlar yaratadi. „Tib qonunlari“ning birinchi kitobini tugatib, o'zining mashhur falsafiy qomusi – „Kitob

ash-shifo“ni ham shu yerda yozishga kirishadi. „Tib qonunlari“ning qolgan qismini ham Hamadonda yozib bitiradi.

Ibn Sino Hamadonda 1023-yilgacha istiqomat qiladi va ayrim siyosiy sabablarga ko‘ra, shu yili Isfahonga jo‘nab ketadi. Umrining qolgan 14 yilini shu yerda o‘tkazdi. Bu yerda ham u tinimsiz ilmiy ish bilan mashg‘ul bo‘lib, bir qancha asarlar yaratdi. Ular orasida tib, falsafa, aniq fanlar, tilshunoslik kabi fanlarga oid kitoblar bor. „Kitob ash-shifo“ning qismlari, fors tilidagi „Donishnoma“ va 20 jildli „Insof-adolat kitobi“ shular jumlasidan.

Jurjoniyning yozishicha, Ibn Sino garchi, jismoniy juda baquvvat bo‘lsada, biroq, shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kecha-kunduz tinim bilmay ishlash va bir necha bor ta‘qib qilinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga jiddiy ta‘sir etdi. U qulanj (*Kolit*) kasalligiga chalindi. Alouddavlaning Hamadonga yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo‘lda dardi qo‘zg‘ab olimning tamomila madori quriydi va oqibatda u shu darddan 57 yoshida vafot etadi. Olim Hamadonda dafn etiladi. Uning qabri ustiga 1952-yilda maqbara ishlangan (me‘mori X. Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag‘ishlangan muzey xonalarini ham o‘z ichiga oladi.[2. internet sayti.]

Ibn Sino yoshligidan favqulodda zehni bilan ajralib turgan ,u 10 yoshida Qur‘onni yod olgan,16 yoshida esa tibbiyot ilmini mukammal egallab,bemorlarni davolay boshlagan.U Buxorodagi Somoniylar saroyida ishlagan va shu yerda katta ilmiy tajribaga ega bo‘lgan.Keyinjalik Xorazm,Rey,Hamadon va Isfarhon kabi shaharlarda yashab,ilmiy faoliyatini davom ettirgan.Ibn Sino umrining ko‘p qismini ilm izlash ,asar yozish va siyosiy beqarorlik tufayli turli shaharlar o‘rtasida ko‘chib yurish bilan o‘tkazgan.U 450 dan ortiq asar yaratgan bo‘lib,ulardan eng mashhurlari “Ash-Shifo” va “Al-Qonun fit-Tibb” hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining birinchi o‘rinbosari A.Xudoyorov, Ibn Sino jamoat fondi boshqaruvi raisi Sh.Zokirxo‘jayev va boshqalar Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish, jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish va targ‘ib etishga alohida e‘tibor qaratilayotganini ta‘kidladi. Zamonaviy tibbiyot taraqqiyotida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino ana shunday ulug‘ zotlardan biri.

– Ilmiy-tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug‘ zot tibbiyot, falsafa, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga oid 450 dan ortiq asar yaratgan. Ularning 242 tasi bizgacha yetib kelgan, – deydi Ibn Sino jamoat fondi boshqaruvi raisi Sh.Zokirxo‘jayev. – Jahon ilm-fani rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan bu durdona asarlar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida tibbiyot taraqqiyotining asosiy

yo‘nalishlarini belgilab bergan. Ushbu asarda buyuk olim amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos solgan. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2014-yil may oyida Samarqandda tashkil etilgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro anjumanda ham bu alohida ta’kidlandi. Biz Ibn Sino merosini o‘rganish, targ‘ib etish borasida dunyoning ko‘plab mamlakatlari olimlari bilan hamkorlik qilmoqdamiz.

Konferensiyada Abu Ali ibn Sinoning boy ilmiy merosi va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida atroflicha so‘z yuritildi.

– Hindistonda buyuk olim Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi katta qiziqish bilan o‘rganiladi, – deydi Hindistondagi Ibn Sino akademiyasi prezidenti, professor Said Zullur Rexman. – Akademiyamiz Ibn Sino asarlarini chuqur tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. Mening bu boradagi ilmiy izlanishlarim 200 dan ziyod maqolalarda jamlangan. Ibn Sino merosi misoli dengiz ostidagi xazinaga o‘xshaydi – qancha chuqur sho‘ng‘isang, shuncha dur topaverasan. Biz Ibn Sino merosini o‘rganayotgan va targ‘ib qilayotgan jahonning o‘nlab mamlakatlaridagi jamg‘arma va markazlar bilan hamkorlikda ish olib boramiz. O‘zbekistondagi Ibn Sino jamoat fondi bilan anglashuv memorandumini imzolangan. Bunday o‘zaro ilmiy hamkorlik olib borilayotgan tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilayotir. O‘zbekistonda Prezident Islom Karimov rahnamoligida ajdodlar merosini o‘rganish va keng targ‘ib qilishga, qadimiy obidalarini tiklash va obodonlashtirishga qaratilayotgan ulkan e’tibor tahsinga loyiq. Tibbiyot ilmining sultoni tug‘ilgan Afshona qishlog‘ida buyuk olimning memorial muzeyi tashkil etilgani, uning yonida tibbiyot kolleji faoliyat yuritayotgani nazariya bilan amaliyotning uyg‘unligiday tuyuldi menga.[3. Internet sayti.]

Ibn sino bugungi zamonaviy tibbiyot taraqqiyotida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan buyuk tabib hisoblanadi. Uning “Tib qonunlari” asari qariyb yetti asr davomida Yevropa va Sharq universitetlarida [asosiy tibbiy qo‘llanma sifatida o‘qitilgan bo‘lib](#), undagi ko‘plab ilmiy qarashlar hozirgi kun tibbiyotida ham o‘z aksini topadi. Shuningdek, u ko‘plab dorivor o‘simliklarning xususiyatlarini o‘rgangan.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1-https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino
- 2-https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino#cite_ref-1
- 3-<http://www.uzbekistan-geneva.ch/ibn-sino-merosi-zamonaviy-tibbiyot-va-amaliyot.html>

